

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 361 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

MUNDARIJA

Innovatsion siyosatni amalga oshirish yo'nalishlari.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari.....	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari.....	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi.....	41
Idrisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari.....	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili.....	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari.....	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy.....	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности.....	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth?	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi.....	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems.....	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati.....	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	



Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Davlat budjetining solikli daromadlari tahlili	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon	143
To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida).....	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari	161
Nosir Maxmudov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich	
Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahallilashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari.....	230
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	



Innovation iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	
Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri.....	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	
SWOT-анализ использования социальных сетей в туристической индустрии узбекистана	279
Касимова Зилола Гуламиддиновна	
Germaniya tajribasidan foydalanish orqali o'zbekistonda turizm sohasidagi kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalalari	287
Xamidova Mo'tabarxon Abdumalik qizi, Ochilov Akram Odilovich	
Blockchain texnologiyasining bank operatsiyalari xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni.....	291
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
Tijorat banklarini reytingini aniqlashda bankometr modelidan foydalanish yo'llari.....	294
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Значение business city как инфраструктурного объекта	303
Солиева Умида Алишер кизи	
The potential for the development of wage labor as a factor	308
Usmanov Ilkhom Achilovich	
Ways to improve the organizational and economic mechanism of business tourism in Uzbekistan.....	312
Musayeva Shoirazimovna, Usmanova Dilfuza Ilkhomovna	
Kichik biznes subyektlarining faoliyatini baholashning metodologik asoslari	318
Mavrolov Ravshan Ne'matjonovich	
Kichik korxonalarini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanish.....	324
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Mamlakatimizda intensiv baliqchilikni rivojlantirishning dolzarb masalalari	328
Mamatqulov Nurbek O'razali o'g'li	
Уменьшение выбросов парниковых газов и переход к возобновляемым источникам энергии	331
Р.Т. Шомуродов, И.И. Бахадиров, Р.Т. Умаров, И.Ш. Жамолиддинова	
Ipoteka bozorida investision muhitni yaxshilash yo'llari.....	341
Abdullaev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
Muammoli kreditlar: yechimlari va istiqbollari.....	346
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich	
Ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarish va ta'sirini baholash uslubiyati.....	351
Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich	
Zamonaviy sharoitda PR (jamoatchilik bilan aloqalar)ning mazmuni va ahamiyati.....	356
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri,
texnika fanlari doktori, professor

INNOVATSION SIYOSATNI AMALGA OSHIRISH YO'NALISHLARI

Zaynutdinova Umida Djalolovna

TDIU "Iqtisodiyot nazariyasi"
kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion siyosatning mazmuni, davlat innovatsion siyosatining zarurati va sohadagi davlat siyosatiga oid asosiy yo'nalishlar, uning asosiy tamoyillari, innovatsion siyosatning asosiy jihatlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrdagi "2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-son¹ Farmoni bilan belgilangan vazifalarni amalga oshirish mexanizmlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion siyosat, innovatsion rivojlanish, innovatsiyalarni rejalashtirish, dastur yozish usuli, Delfi usuli.

Abstract: This article discusses the content of innovation policy, the necessity of state innovation policy, the main directions of state policy in the field of innovation activity, the main principles of innovation policy, the basic aspects of innovation policy. The mechanisms for implementing the tasks defined by the President of Uzbekistan's Decree № PF-5544², dated September 21, 2018, "On the Approval of the Strategy for Innovative Development of the Republic of Uzbekistan for 2019–2021" are also studied.

Key words: innovation, innovation activity, innovation policy, innovation development, innovation planning, program writing method, Delphi method.

Аннотация: В данной статье рассмотрены содержание инновационной политики, необходимость государственной инновационной политики, основные направления государственной политики в сфере инновационной деятельности, основные принципы инновационной политики, основные аспекты инновационной политики. Также изучены механизмы реализации задач, определенных Указом Президента Республики Узбекистан от 21 сентября 2018 года № ПФ-5544³ "Об утверждении Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2019–2021 годы".

Ключевые слова: инновации, инновационная деятельность, инновационная политика, инновационное развитие, планирование инноваций, метод написания программы, метод Дельфи.

KIRISH

Innovatsiya zamonaviy iqtisodiyot va texnologik taraqqiyotning muhim omillaridan biri bo'lib, uning ahamiyati ortib bormoqda. "Innovatsiya (ingl. innovation) – potensial ilmiy-texnik taraqqiyotning yangi mahsulot va texnologiyalar ko'rinishida real taraqqiyotga aylanishidir" [1]. Bugungi kunda bozor iqtisodiyotida innovatsiyalarni tizimli taqdim etish xalqaro standartlarga asoslangan holda amalga oshirilmoqda. Innovatsiya deb yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, texnologik jarayon yoki ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuv ko'rinishidagi faoliyat natijasi tushuniladi. Innovatsiyalar, aslida, innovatorning ijodiy mehnati natijasida o'ylab topilgan va amalda joriy qilingan yangilikdir. Bu jarayonning ilmiy tadqiqotlar orqali har tomonlama o'rganilishi muhimdir. Innovatsion faoliyat sohasidagi turli tadqiqotlarga qaramay, hozirda yagona va umumiy qabul qilingan termi-

1 <https://lex.uz/ru/docs/-3913188>

2 <https://lex.uz/ru/docs/-3913188>

3 <https://lex.uz/ru/docs/-3913188>



nologiyaning mavjud emasligi ushbu sohada tizimlashtirilgan tushunchalarni shakllantirish zaruratini keltirib chiqaradi [2]. Shu sababli, innovatsiyalarni tadqiq etish va ulardan amaliyotda foydalanish bo'yicha dolzarb masalalarni o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakat innovatsion siyosatini amalga oshirishning nazariy-uslubiy jihatlarini xorij olimlari tomonidan muayyan darajada o'rganilgan. Jumladan, innovatsion jarayon o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar J. Shumpeter [3], Z. Glenn, kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rag'batlantirish mexanizmlari P. Drucker [4], C. Freeman [5], milliy innovatsion tizimni shakllantirish muammolari B. Lundvall [6], P. Nelson [7] va boshqa olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan. C. Kortum [8], G. Stevenson [9], Dj. Timmons, U. Bygrave va boshqa bir qator olimlar esa iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida yuqori risk darajasi bilan bog'liq bo'lgan venchur kapitali qo'yilmalarini baholashning empirik tahlilini amalga oshirishgan.

Innovatsion jarayonlarni amalga oshirishning ilmiy-amaliy jihatlarini o'rganish bilan bog'liq tadqiqot ishlari MDH mamlakatlaridagi qator olimlarning izlanishlarida ma'lum darajada tadqiq etilgan. Jumladan, innovatsion faoliyatni tahlil qilish va baholash N. Kondratev [10], V. Marsinkevich, I. Soboleva [11], ilmiy-texnik va tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari L. Lopatnikov [12], L. Davidova, S. Markina [13], venchur kapitalining innovatsion jarayonlarga ta'sirini Yu. Amosov [14], I. Podionov [15], S. Yagudin, I. Komarova, M. Sabirov [16], E. Valeev ilmiy izlanishlarida o'rganilgan.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan mamlakat innovatsion faoliyatini rivojlantirish hamda undan foydalanish darajasini oshirishning umumiy jihatlarini muayyan darajada o'rganilgan va ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar davom etmoqda. Jumladan, mamlakat innovatsion faoliyatini alohida tarmoq, soha va hududlar kesimida baholash hamda intellektual salohiyatni oshirish muammolari S.S. G'ulomov [17], Sh.N. Zaynutdinov [18], A.V. Vahabov [19], N.M. Rasulov [20], innovatsiyalarni investitsiyalash va iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlari hamda innovatsion jarayon o'rtasidagi muvozanat P. Nurumbetov [21], F.B. Shakirova [22], D. Shadieva, innovatsiyalarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish N.Q. Yo'ldoshev, Sh.A. Mirzayidova, B.I. Kamiljanov [23], S.A. Muratov, S.T. Hasanov, R. Kalandarov, S.P. Qurbonovlar [24] milliy iqtisodiyot innovatsion jarayonlaridan samarali foydalanishning umumnazariy jihatlarini B.Yu. Xodiev, T.T. Jo'rayev, X.P. Abulqosimov, N.M. Mahmudovlarning tadqiqot ishlarida bayon etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning amaldagi innovatsion siyosati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrda "2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-son⁴ Farmonida belgilangan. Ushbu strategiya, asosan, O'zbekiston oldida turgan innovatsiyalar bilan bog'liq asosiy muammolarni, ularni hal qilish bo'yicha belgilangan strategik tashabbuslarni va 2030-yilga qadar erishiladigan miqdoriy maqsadlarni o'z ichiga oladi. Innovatsion faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- Innovatsion rivojlantirishning huquqiy jihatdan tartibga solinishini ta'minlash;
- Innovatsion faoliyat sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash, shu jumladan, texnologik taraqqiyotni prognozlashtirish asosida belgilash;
- Innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish;
- Innovatsion faoliyat subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;
- Innovatsion faoliyat sohasidagi respublika, tarmoq va hududiy davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- Innovatsion faoliyatga investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashish;
- Innovatsion faoliyat sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
- Innovatsion faoliyat sohasida kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;
- Innovatsion faoliyat sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Innovatsion siyosat mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish strategiyasi va modelini ustuvor vazifa sifatida tan olish, ilmiy-texnik salohiyatni samarali rivojlantirish va undan foydalanish, shuningdek, uni iqtisodiy siyosat maqsadlariga mos ravishda isloh qilish tamoyillari asosida shakllanadi. Mahsulot ishlab chiqaruvchilar va investorlarga manfaatlarini optimallashtirish, intellektual mulkni daromad manbai sifatida qabul qilish, hududiy aholining mehnat ko'nikmalari va mentalitetini hisobga olish ham innovatsion siyosatning asosiy jihatlarini tashkil etadi. Innovatsion siyosatni to'g'ri shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, bunda innovatsion siyosat yo'nalishini belgilash, rejalashtirish strategiyasini ishlab chiqish va rejalashtirishning tezkorligini ta'minlash muhim hisoblanadi. Innovatsion siyosat yo'nalishini belgilashda kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan

4 <https://lex.uz/ru/docs/-3913188>



bozor holatlarini tahlil qilish va istiqboldagi maqsadlarni oldindan ko'rish lozim. Bu jarayon hudud innovatsion siyosatini ishlab chiqaruvchilar hayotiy tajribaga tayanishga majbur bo'lishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shundan so'ng kelajakdagi muqobil maqsadlarga erishish yo'nalishlari shakllantiriladi. Qabul qilinadigan qaror innovatsion siyosat yo'nalishini to'g'ri tanlash usuli orqali amalga oshiriladi.

Rejalashtirish strategiyasida tanlangan maqsadlarga erishishning muqobil yo'llari va vositalarini ishlab chiqish kerak. Keyin barcha variantlarni taqqoslash va baho berish orqali optimal strategiya shakllantiriladi.

Bu strategiyada innovatsiyalarni izlash va rivojlantirishning asosiy yo'nalishi, maqsadlarga erishish yo'llari va texnik-iqtisodiy asoslar tasvirlanadi. Yakuniy natija esa bevosita innovatsion loyihani yaratish hisoblanadi. Innovatsiyani rejalashtirishning tezkorlik jihatida innovatsion loyiha alohida bosqichlarga bo'linib, har bir bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar aniq belgilab olinadi. Innovatsion siyosatni amalga oshirishda aniq boshlanish va tugash sanalari, ijrochilar, zarur resurslar va boshqa muhim ma'lumotlar ko'rsatilgan rejalar tuziladi. Tezkor rejalashtirish natijasida innovatsiyani amalga oshirish bo'yicha aniq harakatlar rejasi shakllanadi.




1-rasm. Davlat innovatsion siyosat yo'nalishini belgilash usullari.

Innovatsion siyosat yo'nalishini to'g'ri belgilab olishning quyidagi bir necha usullari mavjud:

1. Dastur yozish usuli. Ushbu usulning maqsadi innovatsiyani amalga oshirish bo'yicha batafsil reja tayyorlab olishdan iborat. Aslida, dastur kelajakda innovatsiyalarga ega bo'lgan mantiqiy va muqobil vaziyatning ifodasidir. Dastlab, jarayonlarning kelajakdagi rivojlanish dasturini tuzish va uning oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni aniqlash uchun jamoa tanlab olinadi. Keyinchalik korxona tomonidan kelajakdagi vaziyatni aniqlash va tahlil qilishda yordam beradigan maxsus savollar yaratiladi. Kelajakda yuzaga keladigan vaziyatni tahlil qilish va samaraga erishish uchun maqsadlarni aniqlash orqali innovatsion siyosatni ishlab chiqishga imkon beradi. Ushbu usulning afzalligi shundaki, innovatsion siyosatning rivojlanishi bilan shug'ullanuvchi mutaxassis kelajakda bozorga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni o'rganadi va u bilan bog'liq bosqichlarga osonlik bilan erishilishi mumkin bo'lgan holatlarni aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. Delfi usuli. Delfi usuli – kelgusi voqealarni bashorat qilish usuli bo'lib, unda innovatsion siyosatni ishlab chiqishda ishtirok etuvchilar o'z fikrlarini o'rganish uchun anketa so'rovnomalari yordamida boshqa ekspertlarning fikrlarini yakka tartibda o'rganib chiqadi. Bunday holatda mutaxassis ekspertlarni zarur axborot bilan ta'minlash va guruh a'zolari o'rtasida bevosita aloqa almashinishiga yo'l qo'yilmaydi. Bu psixologik omillarning ta'sirini yo'q qiladi: ochiqchasiga gaplashmaslik, shaxsiy adovatlar, ayrim kishilarning fikrlarini e'tiborga olish va boshqalar. Anketa so'rovlar bir necha turda o'tkaziladi, so'rov natijalari innovatsion siyosatni ishlab chiqishda ishtirok etuvchilarga yuboriladi va unda ilgari e'tiborsiz bo'lgan holatlarni hisobga olishga imkon tug'iladi. Ma'lum bir davrdan keyin har bir ishtirokchiga anketa so'rovlar bo'yicha qo'shimcha savollar taqdim etiladi va ularning dastlabki baholashlaridagi farqlar o'rganib chiqiladi. Natijada, innovatsion siyosatni ishlab chiqishda ishtirok etuvchilar qilgan bashoratlarni tan olish yoki to'g'rilashga imkoniyat paydo bo'ladi. So'ngra mutaxassislarning umumiy fikrlari asosida kelajakning bashoratlagan dastur ishlab chiqiladi. Dasturning natijasi – asosiy maqsadni shakllantiruvchi "maqsad daraxti", deb ataladigan mustaqil tizimni yaratishga xizmat qiladi. "Maqsad daraxti"ni yaratish nafaqat reja maqsadlarining sifat jihatidan muvofiqlashtirilgan va aniq bo'lishini ta'minlaydi, balki ularning muhimligini miqdor tomonidan ham baholash imkonini beradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan innovatsion ishlar korxona va tashkilotlar tomonidan yaratilgan hajmlarda aks etib, quyidagi ko'rinishga ega:



1-rasm. O'zbekiston korxona va tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan innovatsiyalar hajmi (mlrd.so'm).



1-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, 2010-yilda korxona va tashkilotlar tomonidan yaratilgan innovatsiyalar hajmi 1849 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 55746,5 milliard so'mni, ya'ni 13 yil davomida qariyb 30 barobarga oshganini ko'ramiz. Bu O'zbekiston uchun ijobiy holat bo'lib, innovatsiyalar yo'lida muhim dasturlar va tashkiliy-huquqiy ishlar olib borilganligidan dalolat bermoqda.

O'zbekistonda shu davrda ilmiy-tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, quyidagi ma'lumotlar yuzaga kelmoqda:

1-jadval. Ilmiy-tadqiqot ishlarni bajargan tashkilotlar soni.


Yillar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Tashkilotlar soni	237	259	247	251	259	267	313	284	456	195	195	179	181

1-jadval ma'lumotlarini 1-rasm bilan bog'laydigan bo'lsak, mamlakatda ilmiy ishlar asosida yaratilgan innovatsion ishlarning ko'payishi bilan innovatsiyalarni amalga oshirgan tashkilotlar soni nomutanosib ravishda o'sgan. Bu holat tashkilotlarning miqdor evaziga emas, balki sifat evaziga ishlarni amalga oshirganligidan dalolat beradi.

Xorijiy rivojlangan davlatlar innovatsion faoliyatni amalga oshirishda ilmiy tadqiqot ishlariga katta hajmda investitsiya kiritib kelmoqda. Masalan, Germaniya yalpi ichki mahsulotining 2,7 foizini, AQSh 2,8 foizini, Yaponiya 3,5 foizini, Rossiya esa 1,04 foizini ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirgan.

Singapur sobiq bosh vaziri Li Kuan Yu shunday fikr bildirgan edi: "Ko'pchilik mendan Singapurning rivojlangani haqida so'rab, shunday savol beradi: Qanday qilib ulkan davlatdan ajralib chiqib, mittigina hudud bilan rivojlangan davlatga aylandingiz? Bu "mo'jiza"ni qanday amalga oshirdingiz?" Ularga javoban shunday dedim: "Men Singapurda mo'jiza yaratmadim. Men faqat Vatanim oldidagi burchimni bajardim, xolos. Davlat budjetining ko'proq qismini ta'limga yo'naltirdim".

Yuqopidagilapdan kelib chiqib, innovasion siyosat tashkiliy jihatdan quyidagi ikki turga ajratiladi.



2-rasm. Innovasion siyosatning tashkiliy jihatdan turlari.

Hududiy innovatsion siyosat bilan xo'jalik yurituvchi subyekt innovatsion siyosatining farqi shundaki, hududiy innovatsion siyosat makro darajada namoyon bo'lib, uni shakllantirishda "deduksiya" usuliga, xo'jalik yurituvchi subyekt innovatsion siyosati mikro darajada namoyon bo'lib, uni shakllantirishda "induksiya" usuliga tayanamiz. Lekin innovatsion siyosatni ishlab chiqishda alohida-alohida hududni ham, xo'jalik yurituvchi subyektni ham o'ziga xos xususiyatlari va jihatlari hisobga olinishi kerak.

Davlat innovatsion siyosati ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi bo'lib, davlatning innovatsiyalarga munosabatini ifodalaydi, davlat organlarining fan, texnika va fan-texnika yutuqlarini joriy etish sohasidagi maqsadlari, yo'nalishlari, faoliyat shakllarini belgilaydi. Innovatsion siyosatni olib borishda, korxona faoliyatini mustahkamlashda, fikrimizcha, hudud va xo'jalik yurituvchi subyektlar innovatsion siyosatiga quyidagi tartibda ta'rif berish mumkin.

Hududiy innovatsion siyosat – Hukumat tomonidan qabul qilingan huquqiy-me'yoriy, ijtimoiy-siyosiy hujjatlar (qonun va qonun osti hujjatlari) asosida aynan ushbu hududning o'ziga xos jihatlari, shart-sharoiti, mahalliy aholi mehnat ko'nikmasi va mentaliteti, geografik joylashishidan kelib chiqib, innovatsiyaga oid qarorlarni qabul qilishdir.

Xo'jalik yurituvchi subyektning innovatsion siyosati – mikro darajada namoyon bo'lib, Hukumat tomonidan qabul qilingan huquqiy-me'yoriy, ijtimoiy-siyosiy hujjatlar (qonun va qonun osti hujjatlari) asosida xo'jalik yurituvchi subyektning o'ziga xos ishlab chiqarish texnologiyasi va yuqori darajada daromad keltirishini hisobga olgan holda innovatsiyaga oid qarorlarni qabul qilishdir.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida rejalashtirilgan tadbirlar, muddatlar, mas'ul muassasalar, moliya manbalari va kutilayotgan natijalarni belgilaydigan 35 ta harakat xaritasi, shuningdek, 2030-yilga qadar erishi-lishi kerak bo'lgan 81 ta ko'rsatkich va maqsadlarni o'z ichiga olgan jadval mavjud. O'lchanadigan maqsadlar ro'yxati, jumladan, innovatsiya va ta'lim ko'rsatkichlari, Jahon Bankining barcha boshqaruv ko'rsatkichlari va xususiy sektorni rivojlantirish ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Ular quyidagi toifalar bo'yicha birlashtirilgan: davlat boshqaruvi, inson kapitalini rivojlantirish va tadqiqotlar, infratuzilmani rivojlantirish, bozorni rivojlantirish, biznesni rivojlantirish, fan va texnologiyalar, ijodiy natijalarni rivojlantirish. Yaqinda qabul qilingan boshqa qonunchilik ham innovatsiya siyosatiga ta'sir qiladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududiy innovatsion siyosatni amalga oshirishda ko'rilayotgan omillarning to'g'ri tanlanishi va ularni amaliyotga samarali tatbiq etish mamlakat iqtisodiyoti rivoji uchun muhim hisoblanadi. Hududning geografik joylashuvi va tabiiy resurslari, iqtisodiy salohiyati va ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, mahalliy aholining kelib chiqish tarixi va mentaliteti, shuningdek, ishlab chiqarish madaniyati va ilmiy tadqiqot uchun yaratilgan muhit alohida o'rin tutadi. Ushbu omillarni to'g'ri baholash orqali hududiy innovatsion siyosatni muvaffaqiyatli olib borish mumkin. Bunda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq qilish uchun hukumat tomonidan ko'proq rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish talab qilinadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ilmiy-texnik salohiyat, moddiy-texnik baza, faoliyat turi va mulkchilik shakli, to'lovga qodirlik darajasi, boshqaruv tizimini shakllantirish darajasi muhim rol o'ynaydi. Ushbu omillar asosida innovatsion siyosatni shakllantirishda amaliy qo'llaniladigan mexanizmlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Taklif qilinayotgan istiqbolli yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

Innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun ilmiy-tadqiqot loyihalariga ko'proq davlat grantlari va investitsiyalar ajratilishi zarur. Soliq imtiyozlari va subsidiyalar ilmiy-texnik faoliyatni rag'batlantirishda asosiy vosita sifatida xizmat qilishi lozim.

Innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishda xususiy sektorning faol ishtiroki ta'minlanishi kerak. Xususiy kompaniyalarning ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish va davlat-xususiy sheriklik dasturlari orqali resurslar va tajribani birlashtirish tavsiya etiladi.

Innovatsiyalarni rivojlantirish uchun ilmiy tadqiqot markazlari, inkubatorlar va texnoparklar tashkil etilishi lozim. Bunday muassasalar startaplar va yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash uchun muhim platforma bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsion siyosatni ijtimoiy-iqtisodiy siyosat bilan bog'lash orqali aholi turmush darajasini yaxshilash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin. Hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mahalliy ishlab chiqarish va texnologik bazalarni modernizatsiya qilish orqali raqobatbardoshlikni oshirish zarur. Ichki va tashqi bozorlarda innovatsion mahsulotlarni kengaytirish uchun yangi texnologiyalarni jalb etish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish tavsiya etiladi.

Ushbu takliflar hududiy va xo'jalik yurituvchi subyektlar innovatsion siyosatini yanada rivojlantirishga va milliy iqtisodiy o'sishga xizmat qiladigan samarali yo'nalishlarni belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ergashev R.X., Xalikov S.R., Toshbaev A.J. Innovatsion iqtisodiyot: Darslik. –T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. –14 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-630-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4910391>
3. Schumpeter J. Theorie der wirtschaftlichen Entwicklung – Berlin: Duncker & Humblot, 1912.
4. Drucker P. Innovation and Entrepreneurship. Practice and Principles. – London: Heinemann, 1984.
5. Freeman C. Technology and Economic Performance: Lessons from Japan. – London: Pinter Publishers, 1987.
6. Lundvall B. (ed.). National Innovation Systems: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. London: Pinter Publishers, 1992.
7. Nelson R. (ed.). National Innovation Systems. A Comparative Analysis. – New York/Oxford: Oxford University Press, 1993.
8. Kortum S., Lerner J. Assessing the Contribution of Venture Capital to Innovation // RAND Journal of Economics. 2000. Vol. 31. No. 4. 674–692 P.
9. Stevenson H. H., Muzyka D. F., Timmons J. A. Venture Capital in a New Era: A Simulation of the Impact of Change in Investment Patterns. Frontiers of Entrepreneurship Research ed. by R. Ronstadt et al. Wellesley, MA.: Babson College, 1986. P. 380–403.
10. Кондратов Н. Большие циклы конъюнктуры. Вопросы конъюнктуры. Том 1, Выпуск 1, 1925.
11. Марсинкевич В.И., Соболева И.В. Экономика человека: Учеб.пособие для вузов. М.: Аспект Пресс, 1995. 51 с.
12. Лопатников Л.И. Экономико-математический словарь. Словарь современной экономической науки. Изд. 4-е, М.: изд-во "АВФ", 1996. 621 с.
13. Давыдова Л.В., Маркина С.А. Инвестиционный потенциал как основа экономического роста. Финансы и кредит. 2007. № 31 с.271.
14. Аммосов Ю.П. Венчурный капитализм: от истоков до современности. СПб.: РАВИ, 2004. 408 с.
15. Родионов И.И. Венчурный капитал. ГУ ВШЭ, 2005. 40 с.
16. Сабиров М.Р. Венчурный капитал, как фактор инновационной модернизации экономики. Вестник экономики, права и социологии, 2012.
17. Ғуломов С.С. Инновацион иқтисодиётда янги терминология: "ақлли таълим". Илм-фан ва инновацион ривожланиш. №3. 2018. 17-22 б.
18. Zaynutdinov Sh.N. Innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2011. № 1.
19. Вахабов А.В., Разыкова Г.Х. Модернизация экономики. Уч. Пособие. Т.: "Иқтисод-Молия", 2014. 263 с.
20. Rasulov N.M. Korporativ tuzilmalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish uslubiётini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi avtoreferati. T.: TDIU, 2021. 62 b.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Shahzod Avilqulov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

